

## **Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2026-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar**

Boshqarmada o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Kun tartibiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2026-yil 27-fevralda bo'lib o'tgan kengaytirilgan 1-sonli Hay'at yig'ilish bayonida berilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha to'xtalib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'grisida" PF-21-son hamda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'grisida PF-22-son Farmonlari mazmun-mohiyati va ularda belgilangan ustuvor vazifalar yuzasidan atroflicha to'xtalib o'tildi.

Jumladan, 2023-yil 11- sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston-2030" milliy strategiyasi mamlakatni o'rta muddatli rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, aniq maqsadlarini va ularga erishish samaradorligini baholashda muhim vazifalarni belgiladi. Ushbu strategiyadagi maqsadlar va ko'rsatkichlar real holatga mos, o'lchanadigan va obyektiv baholanadigan indikatorlar asosida belgilanishi lozimligi ta'kidlangan, Strategiyaning jadal davom ettirilishi uchun quyidagi muhim yo'nalishlar belgilangan:

erishilgan natijalar hamda mavjud muammolarni hisobga olgan holda o'lchanadigan va baholanadigan samaradorlik ko'rsatkichlarini shakllantirish;

o'rta muddatli maqsadlar samaradorligi indikatorlarini yangilash;

strategiyani amalga oshirish monitoringini raqamli platformalar orqali to'liq raqamlashtirish;

mazkur yondashuv strategiya ijrosini tizimli va shaffof baholashga xizmat qiladi.

Ta'kidlandiki, bugungi kunda oldimizda turgan eng dolzarb va mas'uliyatli vazifalardan biri "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor islohotlarni o'z vaqtida, tizimli va yuqori sifat darajasida amalga oshirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevralda qabul qilingan "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'grisida"gi PF-22-son Farmonida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha aniq raqamli maqsadlar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘risida” PF-117-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘risida” PF-51-son Farmoni ijrosi.

Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning mamlakatni rivojlantirishdagi hissasini tavsiflovchi statistik materiallarning chuqur kompleks tahlili uchun milliy statistika organlarining roli va javobgarligini oshirish hamda statistika sohasida islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tizimda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘grisida” PQ-75-son qarori ijrosiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar muhokama qilindi.

Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limlari tomonidan 2026-yil yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlar keltirib o‘tildi.

Jumladan, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi 52 553,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2025-yil bilan taqqoslaganda 6,1 foizga o‘tdi.

Viloyat korxonolari tomonidan 2026- yilning yanvar-mart oylarida 73 503,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 105,3 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 3 442,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2025- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 105,4 foizga yetdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2025- yilga nisbatan 162,9 foizni tashkil etdi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 083,9 mlrd. so‘mni, 2025-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 114,0 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 4 031,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2025- yilga nisbatan 106,5 foizga yetdi, hamda viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2026- yilning yanvar-mart oylarida 826,9 mln. AQSH dollarini,

jumladan eksport 463,8 mln. AQSH dollarini va import 363,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2026- yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijro holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27- iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-sonli qarori talablari asosida ommaviy axborot vositalarida statistika faoliyatiga oid 51 ta televideniya, 35 ta radio, 52 ta gazeta hamda boshqarmaning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda 985 ta statistik ko'rsatkichlar chop etildi.

Hisobot davrida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda 255 ta statistika ishlari bajarildi va iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy statistik ma'lumotlar har oy va har chorakda Milliy statistika qo'mitasi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Tayyorlangan tahliliy statistik ma'lumotlar infografika, diagramma va videoroliklar ko'rinishida Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi orqali efirga uzatildi.

Tadbirkorlik subyektlari o'rtasida profilaktika ishlarini olib borish maqsadida, viloyat bo'yicha 36 marotaba seminarlar va 36-marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi hamda 2 469 ta buklet va qo'llanmalar tarqatildi.